

**Ikkilamchi bozordan avtotransport sotib olish uchun avtokredit ajratish to'g'risida
kredit shartnomasi № _____**

_____ shahri.

20__ yil __ _____.

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyatining _____ BXM/BXO (keyingi o‘rinlarda-Bank) Nizom hamda 20__ yil __ _____ dagi _____-sonli ishonchnoma asosida ish olib boruvchi o‘z vakili-_____ BXM/BXO boshqaruvchisi/mudiri _____ bir tomondan va _____ da yashovchi, _____ tomonidan __ __ __ yilda berilgan № __ _____ pasport ma'lumotlariga ega _____ (keyingi o‘rinlarda-Kredit oluvchi) ikkinchi tomondan hamda _____ da yashovchi, _____ tomonidan __ __ __ yilda berilgan № __ _____ pasport ma'lumotlariga ega _____ (keyingi o‘rinlarda-Birgalikda kredit oluvchi) uchinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

I. Shartnoma predmeti

1.1. Bank Kredit oluvchiga avtotransport vositasini sotib olish uchun _____ so‘m avtokredit beradi.

1.2. Kredit maqsadi _____ rusumli avtotransport vositasi sotib olish.

1.3. Kredit __ oydan iborat bo‘lgan imtiyozli davr bilan __ oy muddatga beriladi.

1.4. Kredit bo‘yicha qarz qoldig‘iga yillik __ % hajmida foiz hisoblanadi. Muddati o‘tgan asosiy qarzдорlik uchun yillik __ % hajmida foiz hisoblanadi. Foiz to‘lovlari kredit asosiy summasining kamayib boradigan qoldig‘iga xisoblab yoziladi.

1.5. Kredit _____ (annuitet yoki kreditning qoldiq summasidan kamayib borish usulidan biri tanlanadi) usulida so‘ndirib boriladi. Kreditni qaytarish ushbu shartnomaning ilovasi va ajralmas qismi bo‘lgan kreditni qaytarish jadvaliga asosan amalga oshiriladi va unga muvofiq so‘ndirish davriyligi har oyda bir marta __-sanasida amalga oshiriladi.

1.6. Kreditning joriy to‘lovi uchun kreditni qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko‘p mablag‘ kelib tushsa, kelib tushgan mablag‘ning ortiqcha qismini kreditining asosiy qarzini so‘ndirishga yo‘naltiriladi.

1.7. Qarz oluvchining roziligi asosida sug‘urta xarajatlari kredit hisobidan to‘lanishi mumkin.

II. Tomonlarning huquqlari va majburiyatlari

2.1. Bankning huquqlari:

2.1.1. Kredit oluvchining to‘lov layoqatini, kredit ta‘minoti yetarliligini nazorat qilish, Kredit oluvchidan majburiyatlarni bajarish yuzasidan kerakli hujjatlarni so‘rab olish.

2.1.2. Kredit oluvchi tomonidan, kredit hisobiga sotib olingan avtotransport vositasini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 31 avgustdagi 683-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Avtomototransport vositalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizomiga asosan sotib olingandan boshlab o‘n kalendar kun ichida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmasa va shundan so‘ng o‘n kalendar kun ichida kredit ta‘minoti sifatida rasmiylashtirilmasa, kechiktirilgan har o‘n besh kalendar kun uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir barobari miqdorida jarima qo‘llash.

2.1.3. Kreditning navbatdagi qismi o‘z vaqtida so‘ndirilmagan hollarda:

a) kredit (yoki uning bir qismi) muddati o‘tgan to‘lovlar hisobvarag‘iga kiritilgan sanadan boshlab kredit uchun haqni oshirilgan foiz stavkasi bo‘yicha, muddati o‘tgan qarz summasidan yillik __ foiz hajmida belgilash;

b) Kredit oluvchidan kreditning qarz qoldig‘ini muddatidan oldin qaytarish va foizlarni to‘lash yuzasidan darhol choralar ko‘rishini talab qilish;

d) qonunchilikka muvofiq, kredit bo‘yicha qarzni so‘ndirish uchun ta‘minotga qaratish borasidagi har qanday huquqlardan foydalanish;

e) ushbu shartnomani belgilangan tartibda bekor qilish.

2.1.4. Kredit oluvchi ushbu Shartnoma shartlarini qanday bajarayotganligini, jumladan kreditdan maqsadli foydalanilishini tekshirish.

2.1.5. Kredit oluvchi va birgalikda kredit oluvchi kredit bo'yicha asosiy qarz va foizlarni qaytarishning belgilangan muddatlariga amal qilmasa Bank qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli choralar ko'radi.

2.1.6. Bank o'z majburiyatlarini bajarish uchun shartnoma bo'yicha barcha zarur ma'lumotlarni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda uchinchi shaxslarga topshirishga haqli.

2.2. Kredit oluvchining huquqlari:

2.2.1. Kredit shartnomasi loyihasini bank tashqarisida tanishib chiqish va maslahatlashish uchun olib ketish.

2.2.2. Kredit shartnomasi imzolanganidan keyin, biroq pul mablag'lari haqiqatda olingunga qadar kredit olishdan biron-bir to'lovlarsiz voz kechish.

2.2.3. Kredit va unga hisoblangan foizlarni o'zi mustaqil tanlagan quyidagi usullarda amalga oshirish:

- Bank kassasiga naqd pul topshirish;
- Kredit oluvchining Bankda ochilgan shaxsiy depozit hisobvarag'idan mablag' o'tkazish;
- Kredit oluvchining ish haqidan naqdsiz o'tkazish;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa usullarda.

2.2.4. Kredit qarzdorligini shartnomada belgilangan muddatlardan avval qisman yoki to'liq qaytarish.

2.2.5. Bank tomonidan kredit shartnomasi o'zgartirilishi kutiladigan hollarda bu haqda kamida 5 kun oldin axborot olish.

2.2.6. Sug'urta kompaniyasi va baholovchini mustaqil tanlash.

2.3. Birgalikda Kredit oluvchining huquqlari:

2.3.1. Kredit shartnomasi loyihasini bank tashqarisida tanishib chiqish va maslahatlashish uchun olib ketish.

2.3.2. Kredit va unga hisoblangan foizlarni quyidagi usullarda amalga oshirish:

- Bank kassasiga naqd pul topshirish;
- Birgalikda Kredit oluvchining Bankda ochilgan shaxsiy depozit hisobvarag'idan mablag' o'tkazish;
- Birgalikda Kredit oluvchining ish haqidan naqdsiz o'tkazish;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa usullarda.

2.3.3. Bank tomonidan kredit shartnomasi o'zgartirilishi kutiladigan hollarda bu haqda kamida 5 kun oldin axborot olish.

2.4. Bankning majburiyatlari:

2.4.1. Kredit oluvchiga _____ so'm avtokredit ajratadi.

2.4.2. _____ kredit hisobvarag'i ochish.

2.4.3. Kredit oluvchining depozit hisobvarag'iga boshlang'ich badal sifatida kiritilgan pul mablag'i va kredit hisobvarag'idan kredit mablag'ini _____ ning _____ bankida ochilgan _____ - depozit hisobvarag'iga __ __ __ yilda tuzilgan _____ - sonli shartnomaga asosan to'lovlarni naqdsiz pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirish.

2.4.4. Kredit oluvchini kredit berishni rad etish, kreditni muddatidan oldin undirishga qaratish sabablari to'g'risida yozma xabardor qilish.

2.4.5. Bank mijozning shaxsiy ma'lumotlariga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ishlov beradi.

2.5. Kredit oluvchining majburiyatlari:

2.5.1. Kredit shartnomasi kuchga kirguniga qadar mazkur shartnomaning qayd etilgan shartlarga muvofiq, kredit hisobidan sotib olinayotgan avtotransport vositasi qiymatidan _____ so'm boshlang'ich badal mablag'larini o'zining nomiga Bankda ochilgan depozit hisobvarag'iga kiritish yoki boshlang'ich badal to'langanligini tasdiqlovchi xujjatlarni taqdim etish.

2.5.2. Kredit olingunga qadar kredit qaytarilishi ta'minoti sifatida kredit hisobidan sotib olingan qiymati _____ so'mlik _____ rusumli avtotransport vositasini qonun hujjatlari talablariga muvofiq va Bankni qanoatlantiradigan shaklda rasmiylashtirib taqdim etish.

2.5.3. Kredit bo'yicha asosiy qarz to'liq qaytarilib, foizlari to'langunicha amalda bo'ladigan sug'urta polisi kuchga kirishi uchun yetarli summadagi sug'urta badalini sug'urta kompaniyasiga kredit olgunga qadar to'lash hamda garov shartnomasi xarajatlarini o'z hisobidan to'lash.

2.5.4. Ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan Kreditni qaytarish jadvaliga muvofiq kredit va unga hisoblangan foizlarni 20__ yil __ _____dan boshlab har oyning _____ sanasida so'ndirib borish.

2.5.5. Har oyda, kreditni qaytarish jadvaliga asosan navbatdagi to'lovlarni Bankda Kredt oluvchi nomiga ochilgan maxsus hisobvaraqa oldindan, asosiy qarz va foizlar bo'yicha navbatdagi to'lov muddati kelgunicha kiritib borish.

2.5.6. Kreditlash davri mobaynida garovga qo'yilgan mulk qiymati bozordagi shunga o'xshash mulk narxlari pasayishi sababli kamaygan hollarda yohud garovga qo'yilgan mulkni sotishdan olingan mablag'lar yetmagan taqdirda Bankni qanoatlantiradigan shaklda kredit yuzasidan yetishmayotgan summada qo'shimcha ta'minot taqdim etish.

2.5.7. Kredit munosabatlari jarayonida kredit masalalari yuzasidan zarur bo'lgan har qanday axborotni Bankning talabiga ko'ra unga taqdim etish.

2.5.8. Kredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizlardan qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirda, Bank tomonidan qarzdorlikni ikki tomonlama solishtirish dalolatnomasi Kredit oluvchiga taqdim qilingan yoki uning yashash manziligi yuborilgan taqdirda, ushbu solishtirish dalolatnomasini 3 (uch) kalendar kunida shaxsiy imzo bilan tasdiqlab, uning bir asl nusxasini Bankka yetkazib berish.

Bank tomonidan Kredit oluvchiga taqdim qilingan yoki yuborilgan qarzdorlikni ikki tomonlama solishtirish dalolatnomasi yuqorida belgilangan muddatda Kredit oluvchi tomonidan imzolanmagan va Bankka yuborilmagan taqdirda, ushbu dalolatnoma Kredit oluvchi tomonidan tan olingan hamda imzolangan hisoblanadi.

2.5.9. Turar joyi, ish joyi, familiyasi yoki ismi o'zgarishi kutilayotgani, shuningdek mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa vaziyatlar to'g'risida ko'pi bilan 3 kun ichida Bankka xabar berish.

2.5.10. Ushbu shartnoma amal qiladigan muddat mobaynida Kredit oluvchi Bankning roziligisiz ushbu shartnoma bo'yicha Kredit oluvchining majburiyatiga nisbatan ustivor talab qilish huquqiga ega bo'lishi mumkin bo'lgan uchinchi tomonlarning kreditlari yoki qarzlarini jalb qilmasligi kerak.

2.5.11. Xizmat ko'rsatish va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida mijoz o'ziga tegishli shaxsga doir ma'lumotlarga (shaxsiy ma'lumotlarga) Bank tomonidan ishlov berilishiga, qayta ishlanishi, foydalanishi va uchinchi shaxslarga, shuningdek, ushbu shartnoma bo'yicha ma'lumotlarni kredit byurosi, sug'urta kompaniyasi va boshqa shaxslarga taqdim etilishiga o'z roziligini beradi.

2.6 Birgalikda kredit oluvchi majburiyatlari:

2.6.1. Ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan Kreditni qaytarish jadvaliga muvofiq kredit va unga hisoblangan foizlarni 20__ yil __ _____dan boshlab har oyda bir marta so'ndirib borish.

2.6.2. Kelgusida turar joyi, ish joyi, familiyasi yoki ismi o'zgarishi, shuningdek ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar to'g'risida ko'pi bilan uch kun ichida Bankka xabar berish.

2.6.3. Birgalikda kredit oluvchi ushbu shartnoma bo'yicha qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirda kredit oluvchi bilan birgalikda (solidar tarzda) javobgar hisoblanadi hamda Bankning talabiga binoan qarzdorlik summasini to'liq so'ndirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

III. Kredit oluvchining kafolatlari

3.1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasi hamda "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizom (Adliya Vazirligida 13.04.2020 yda 3229-son bilan ro'yxatdan o'tgan) talablariga asosan, Kredit oluvchi ushbu bilan Bankka shartnoma bo'yicha to'lov majburiyatlarini bajarish maqsadida zarur bo'lgan to'lovlarni amalga oshirish uchun Kredit oluvchining Bankda va/yoki har qanday boshqa bankda ochilgan har qanday hisobvaraqlar va bank kartalaridan istalgan valyutadagi mablag'larni Kredit oluvchini topshirig'i va/yoki qarzdorlikni tan olganligi to'g'risida yozma xat va/yoki yozma roziligini olmasdan Bank

foydasiga akseptsiz hisobdan chiqarish to'g'risida qonuniy, qaytarib bo'lmaydigan huquqni beradi.

IV. Tomonlarning javobgarligi

4.1. Tomonlarning ushbu shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi ushbu shartnoma shartlari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

V. Korrupsiyaga qarshi shartlar

5.1. Taraflar ushbu Shartnomani tuzishda, Shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, Shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oldilar.

5.2. Taraflar ushbu bo'limdagi korrupsiyaga qarshi shartlarda belgilangan korrupsiyani oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

5.3. Har bir taraf ushbu Shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmagani, Shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmagani, taklif etilmagani, ularni berishga va'da qilinmagani, shuningdek, moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganini) kafolatlaydi.

Taraflar, ular tomonidan Shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

5.4. Taraflar o'z'lari, shuningdek, o'zining ijroya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga, jumladan qonunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yohud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyati, manbai, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashlilikini yashirishga yo'l qo'ymaydilar.

Shuningdek, taraflar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish holati bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

5.5. Taraflar tovarlar, xizmat va ishlarni realizatsiya qilish va o'tkazish, bitimlar tuzish bo'yicha muzokaralar olib borish, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyuterlar, huquqshunoslar, hisobchilar, ular nomidan harakat qiluvchi boshqa vakillar) nisbatan quyidagi harakatlarni amalga oshirishi shart:

- korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmashligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish;

- ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik;

- ularni faqat tarafning kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilish;

- ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.

5.6. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydi.

5.7. Agar bir tarafga boshqa tarafning ushbu bo'limda belgilangan har qanday shartning buzilishiga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va tegishli choralar ko'rilishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xabardor qilishni talab qilishi shart.

Tarafning talabi bo'yicha tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf Shartnomani bir tarafdama to'xtatib turish yoki bekor qilishga, hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

VI.Shartnomaning amal qilish shartlari

6.1. Ushbu Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va Kredit oluvchi kreditni va uning foizlarini to'laguniga qadar hamda tomonlarning o'z zimmalariga olgan majburiyatlari to'liq bajarilguniga qadar amal qiladi.

6.2. Bank kredit berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarguniga qadar Shartnoma tomonlardan birining yozma arizasiga ko'ra bekor qilinishi mumkin.

6.3. Shartnomaning bekor qilinishi tomonlarni shartnoma kuchida bo'lgan davrda vujudga kelgan majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

6.4. Kredit oluvchi Bankning yozma roziligisiz mazkur shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga o'tkazishga haqli emas.

6.5. Mazkur Shartnoma bo'yicha nizolar paydo bo'lgan hollarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra belgilangan tartibda hal etiladi.

6.6. Ushbu shartnomaga o'zgartish va qo'shimchalar har ikki tomon imzolaydigan qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

6.7. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikkita bir xil nusxada, har bir tomon uchun bittadan tuzildi.

BANK:

_____ BXM/BXO
Manzil: _____
STIR _____
Telefon _____
Boshqaruvchi _____
Bosh buxgalter _____

KREDIT OLUVCHI:

F.I.Sh. _____
Manzil _____
Telefon raqami _____
Pasport ma'lumotlari _____ ,
_____ tomonidan
_____ yilda berilgan.

BIRGALIKDA KREDIT OLUVCHI:

F.I.Sh. _____
Manzil _____
Telefon raqami _____
Pasport ma'lumotlari _____ ,
_____ tomonidan
_____ yilda berilgan.

Xurmatli kredit oluvchi va birgalikda kredit oluvchi!

Kredit va unga hisoblangan foizlar o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda Sizning kredit tarixingizda majburiyatlar o'z vaqtida bajarilmaganligi to'g'risida ma'lumotlar shakllanadi va bu o'z navbatida kelgusida kredit tashkilotlaridan kredit olish imkoniyatingizni pasayishiga sabab bo'lishi mumkin